

TASVIRIY SAN'ATDA ANOR MEVASINING RAMZIY MA'NOSI

Fayzullaeva Xabiba Davronbek qizi
Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san'at
va amaliy bezak san'ati ta'lim yo'nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Anor mevasining biologik tarqalishi, ramziy ma'noda ifodalanilish, Akmal Nurning anor mevali asarlari haqida bayon qilindi. Amaliy bezak san'atida anor mevasining ahamiyati yoritib berildi.

Kalit so'zi. Meva, anor, anordoshlar, *Punica granatum*, ramziylik, don, ko'p, serfarzand, O'rta Osiyo, subtropik, hosildor, nafis, xalq amaliy bezak san'ati, nordon, shirin, baland, past, samoviy olma, to'kin sochinlik.



Anor (*Punica granatum* L.) – [anordoshlar](#) (anorgullilar [oilasi](#))ga mansub, [subtropik meva o'simligi](#); bo'yi 2–10 m [daraxt](#) yoki [buta](#). Vatani [O'rta Osiyo](#), [Ozarbayjon](#), [Eron](#) va [Afg'oniston](#); yov-voyi turlari [O'rta dengiz](#) atrofi, O'rta Osiyoning [janubida](#), [Qrim](#), [Kavkaz](#), Eron, Afg'oniston, Old [Osiyo](#) va [Dog'istonda](#) uchraydi. Ilmiy tadqiqotlarda anor ramzi ko'p o'rganilgan. Ushbu ramz bu hududda rivoj topgan dehqonchilik madaniyati va udum, marosimlar bilan bog'liq. Anor tasviri erkak avlodining ramzlaridan biri hisoblangan: ko'p don- ko'p farzand, ko'p og'il deb tushunilgan. Don va bolalar bir ieroglif- tarzi bilan ifodalangan. Shuning uchun nikoh to'yida kelinning sepida anor tasviri tushurilgan soch to'g'nog'ich bo'lishi albatta shart sanalgan. Ramzlar ma'nosidagi bu o'xshashlik qadim zamonlardan ushbu hududdan Buyuk ipak yo'li o'tganligi hamda mustaxkam madaniy va etnik aloqalar bo'lganligi bilan bog'liqdir. Anor

daraxti Xitoyda o'rta asrlarda paydo bo'lganligi nazarda tutilsa, anorga bog'liq udumlar O'rt Osiyodan Xitoyga o'tganligi ayonlashadi.

Qadimgi meva bo'lgan anor, yaqinda uning yuqori miqdordagi antioksidantini kashf etganligi sababli mashhurligi biroz tiklanmoqda. Anor O'rta yer dengizi, O'rta Sharq va Osiyoda ming yillar davomida keng tarqalgan bo'lib, qadimgi Ahd va Bobil Talmudida yozilgan.

Qadimgi Misrda hosildorlikning ramzi bo'lgan anor bu quruq iqlim sharoitiga juda mos keladi.

Anor gohida aynan o'zi gohida uslublashtirib, ifodalanoladi. Ba'zan uning kesimi ichidagi donachalari ham tasvirlanadi. Bunda idishning shakliga tushgan yorqin bo'yoqnaqshi nafis ko'rinadi, nur ta'sirida sir tovlanib jonli manzara hosil bo'ladi. Har bir bezakning naqshi, shakli va qayerda ishlatilishi ustaning mahoratiga bog'liq. Anor tasviri xalq amaliy bezak san'atining boshqa turlarida ham ko'p qo'llaniladi.

Anor- ezgulik, to'qchilik, to'kin sochinlik, va yetuklik.

Anor- onalik muhabbati, serfarzandlik va oila ramzi. Mustaxkam oila hayot qizilligi, qondosh ma'nosini anglatadi. Anorni shirin nordonligi oiladagi muhitni turli jihatlarini ko'rsatish bilan birga hayotdagi baland, pastlik oilada ora tojdorlik ma'nosini anglatadi. Anorning ichidagi oq parda qalb pokizaligini ramzidir. Mevalarning birinchi badiiy tasvirlari 3000 yildan ko'proq vaqt oldin Qadimgi Misr davrida paydo bo'lgan, qabrlarida oziq-ovqat tasvirlangan natyurmortlar topilgan. Misrliklar meva rasmlari keyingi hayotda o'lganlar uchun oziq-ovqat bo'lishiga ishonishgan. Anor, ehtimol, san'at uchun eng qiziqarli mevadir. Anorning botanika nomi Punica granatum, uning Rim Karfagenidan kelganligini isbotlaydi. Ushbu mazali mevaning estetik jihatdan chiroyli shakli turli xil ramziy tasvirlarga ega va uning ko'plab urug'lari uni unumdorlik ramzi qiladi.

Qur'onda anor yer va samoviy mevalarning sifati sifatida uch marta zikr qilingan. U Xudo tomonidan qilingan yaxshi amallarni ifodalaydi, shuning uchun uni ba'zan "Samoviy olma" deb ham atashadi.

Anor bilan eng mashhur rasm - Dante Gabriel Rossetti tomonidan "Proserpine" (1874) - vasvasa va inoyatdan tushish ramzi. Yunon va Rim mifologiyasidagi Proserpin afsonasida Pluton tomonidan yer osti olamiga olib ketilgan va turmushga chiqishga majbur bo'lgan ma'buda anor yeyish vasvasasiga tushganligi haqidagi hikoyani o'z ichiga oladi. Halokatli xato uni abadiy ozodlikdan mahrum qiladi va uni yer osti dunyosidagi Pluton bilan bog'laydi (har yili olti oyda iste'mol qilingan oltita anor urug'ining soniga ko'ra, u uyda, qolgan oylarni esa yer osti dunyosida o'tkazishi mumkin).



Nuriddinov Akmal Vahobovich (1959.27.2, Namangan) — rangtasvir ustasi; O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademiki (1997), O'zbekiston xalq rassomi (2003). Akmal Nur ijodida ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat to'qnashuvi va bunda ezgulik va yorug'likning tantanasi, ma'naviy qadriyatlar tarannum etiladi, mustaqillik olib kelgan o'zgarishlar, muhabbat, oilaviy baxt-saodat, insof va diyonat o'z aksini topdi. Asarlari: "Hayot boshlanmoqda" uchligi, "Umid bulog'i", "Ajdodlar nazari" (1987); "Kushan

qishlog'i", "Tong", "Kushan afsonasi" (1988); "Oila" (1990); "Darvish", "Shahar taqdiri", "Tun va kun", "Unutilgan qadriyatlar", "Shirin tush" (1992); "Tojmahal", "Muhabbat bog'i" (1993); "Ishq olmasi", "Tun va kun. Zulmat va Ziyo" (1995); "Jayxun", "Fikr parvozi" (1996); "Tavhid" (1997); "Rishton natyurmorti", "Ilhom pariye" (1998); "Muhabbat vodiysi", "Armon" (2000); "Oy ustidagi pari" (2001); "Jannat uchligi", "Ona" (2003) va boshqalari.



Muhabbata bog'i. 2009. Moybo'yoq holst (90x45).

Hech ikkilanmay tasdiqlash mumkinki, Akmal Nur juda xilma-xil va uning ijodi ko'lami taassurot qoldiruvchi. Uning asarlari juda chuqur ramziy ma'noga ega, ularda o'tmish va hozir, haqqoniylik bilan hayot o'zaro bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bu - san'atni o'qiy va ko'ra oladigan, tushunadigan kishilar uchun taassurotlar va fikrlarning o'ziga xos labirinti hamdir...

Rassom ijodi o'ta yorqin va hayotiy quvvatga ega. Biz asarlarni tomosha qilganiizda bu jihatlarini guvohi bo'lamiz. Asosiy motiv olma, anor, oy tasviri ramziy qiyofa, metafora singari ko'p ma'nolarni o'zida yashirgan. Oilaviy qadriyatlar, shirin tuyg'ular aksi rangtasvir ustasining har bir ijodidan joy olgan.

Qadimdan uylarni bezaganda serxosil anor daraxtini namoyonda tasvirlashgan. Bu tasvir xonani bezaganda juda ko'rkamlik bergan, insonlar xonadonida xar doim to'qchilik bo'lsin, ular o'ylagan niyatlarga yetshsin deb tilak qilganlar. Shuning uchun xam xalqimiz «yaxshi niyat, yarim mol» deb bejiz aytmaganlar. Anor I-V asrlarda go'r qutilari devorlarida, I- III asrlarga oid anor ushlab turgan xosildorlik hudosi Anaxita xaykalchasisa mavjud. Anor bilan lola tasviri Panjakent devoriy sur'atlarida, anor ca anorgul naqshi XIX-XX asr uy-joy me'morchiligida ko'p ishlangan. Anor tasviri o'rta asrlarga oid kulolchilik buyumlarida ham ko'p uchraydi. Anor ichidagi donachalari - hosildorlik, anor bilan lola tasviri tabiatning uyg'onishi, bahor ramzini bildiradi. Xitoyliklar ham anorga alohida ahamiyat beishgan. Anor tasviri erkak avlodining ramzlaridan biri hisoblangan: ko'p don- ko'p farzand, ko'p og'il deb tushinilgan; don va bolalar- bir ieroglif-tsi bilan ifodalangan. Shuning uchun, nikoh to'yida kelinning sepida anor tasviri tushirilgan soch to'g'nogich bo'lishi albatta shart sanalgan. Ramzlar ma'nosidagi bu o'xshashlik qadim

zamonlarda ushbu hududdan Buyuk ipak yo'li o'tganligi hamda mustaxkam madaniy va etnik asoslar bo'lganligi bilan bog'liqdir. Anor daraxti Xitoyda o'rta asrlarda paydo bo'lganligi nazarda tutilsa, anorga bog'liq udumlar O'rta Osiyodan Xitoyga o'tganligi ayonlashadi. O'simliksimon naqshlar kam sonli mavzularni qamrab olgan bo'lib, asosan, me'morchilik, kulolchilik, kashtachilik va gilamdo'zlikda ko'p qollanilgan. Jumladan ilmiy tadqiqotlarda anor ramzi ko'p organilgan. Ushbu ramz bu hududda rivoj topgan dexqonchilik madaniyati va u bilan bog'liq udum, marosimlar bilan bog'liq. Anor xosildorlik ramzi ham hisoblangan. Anor gohida aynan o'zi, gohida uslublashtirilib ifodalangan. Ba'zan uning kesimi va ichidagi donachalari ham tasvirlanadi. Bunda idishning shakliga mos tushgan yorqin bo'yoqli naqsh nafis ko'rinadi, nu tasirida sir tovlanib, jonli manzara hosil bo'ladi. Xar bir bezakning shakli va qayerda ishlatilishi ustalarin mahoratiga bog'liq. Anor tasviri xalq amaliy san'atining o'zbek milliy to'qimachiligida 19 asrning 2-yarmida keng tarqaldi. Masalan, dasturxon va u kabi buyumlar guli anorsimon gul shaklida bo'lgan. Naqqoshlikda, kulolchilikda va boshqa xalq manzarali san'at turlarida ishlatiladigan anor elementidan tashkil topgan o'simliksimon naqsh. Bu naqshda ko'pincha anorning ichki qismi xam qisman tasvirlanadi. Anorgul kulolchilikda, misgarlikda, kashtachilikda, to'qimachilikda, naqqoshlikda Anorgul kompazitsiyasida anorni ikki xil, ya'ni: tabiiy yoki stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlashadi. juda ko'p ishlatiladigan naqsh. Jumladan, anor naqsh sifatida o'zbek milliy to'qimachiligida, XIX asrning II-yarmida keng tarqaldi. Naqqoshlikda, kulolchilikda, kashtachilikda, misgarlikda va boshqa xalq manzarali san'at turlarida ishlatiladigan anor elementidan tashkil yopgan o'simliksimon naqsh. Anorgul qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo'lib, ko'pincha Farg'ona naqsh uslublarida ko'p ishlatiladi. Bu naqsh turi hayotdagi to'qchilik, to'kin sochinlik, ramzi sifatida ko'p ifodalaniladi. Anorgul kompazitsiyasida anorni ikki xil, ya'ni tabiiy yoki stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlashadi. Bu naqshda ko'pincha anorning ichki qismi ham qisman tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati

1. Собитович, Б. С.. (2022). ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУР ПОРТРЕТИНИ ФАЛСАФИЙ ВА ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИНИНГ МАНТИҚИЙ ЕЧИМИ. & quot; ONLINE – CONFERENCES & Quot; PLATFORM, 83–87. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/670>
2. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>
3. Rustam Ravshanovich, J. . (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1–8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
4. Jabbarov, R.. (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
5. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
6. Nazirbekova, S. (2021). THE IMPORTANCE OF FIELD PRACTICE IN FINE ARTS. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v4.35>